

Sarhisob: "O'zkimyosanoat AJ"da 2024-yilda energiya resurslari samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rilgan choralar natijasi

// 10.01.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-o-zkimyosanoat-aj-da-2024-yilda-energiya-resurslari>

2024-yilda energiya resurslari samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

iqtisod qilindi:

- 257 880,1 ming kVt.s elektr energiyasi
- 193 792,1 ming m³ tabiiy gaz

Fotoelektr stansiyalarining umumiy quvvati 11,9 MVtga yetkazildi

Korxonalar kesimida quyidagi quvvatlarda quyosh panellari o'rnatildi:

- "Navoiyazot" AJ - 3 000 kVt
- "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ - 2 100 kVt
- "Maxam-Chirchiq" AJ - 800 kVt
- "Ammofos-Maxam" AJ - 500 kVt
- "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ - 160 kVt
- "Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJ QK - 65 kVt



uzkimyosanoat.uz



@uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat

Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i – sanoatda energiya resurslari samaradorligini oshirish, shu bilan birga, quvvatlardan oqilona foydalanish va energiyani tejash yuzasidan amaliy choralar ko'rilmog'ida. Jumladan, kimyo sanoatida ham.

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida 2024-yilda energiya samaradorligini oshirish va iqtisod qilishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" ijrosi yuzasidan 193 792,1 ming m³ tabiiy gaz va 257 880,1 ming kVt.s elektr energiyasini iqtisod qilishga erishildi.

Bunda albatta, davlatimiz rahbarining "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 14-iyundagi qarori hamda Prezident rahbarligida 2024- yil 27-avgust kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida energiya samaradorligini oshirish va iqtisod qilish yuzasidan belgilangan vazifalarning ijrosi muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birgalikda, sohada energiyaning muqobil manbalaridan tobora keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. 2024-yilning o'zida korxonalarda 6,6 MVt quyosh panellari o'rnatildi. Bu bilan fotoelektr

stansiyalarining umumiy quvvati 11,9 MVtga yetkazildi.

Jumladan, o'tgan yilda "Maxam-Chirchiq" AJda 800 kVt, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda 2 100 kVt, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJda 160 kVt, "Ammofos-Maxam" AJda 500 kVt, "Qo'ng'irotd soda zavodi" MCHJ QKda 65 kVt, "Navoiyazot" AJda 3 000 kVt quyosh panellari o'rnatildi.

2025-yilda ham "O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida 4,5 MVt quvvatli fotoelektr stansiyalarini o'rnatish rejalashtirilgan.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati